




## Kitob olami

*Tanishaylik: MEN – KIJOB,  
Asl bilimlarza kon.  
Bo'lsang agar qadrdon.*



**Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-IDUMning 9-«A» sinf o'quvchisi Ozoda Bozorboyeva ona tili va adabiyot fanidan III bosqich shahar olimpiadasida 1-o'rinni egalladi.**

**Sevarbek Elboyev poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 118-umumta'lim maktabining 5-«A» sinfidagi a'lo baholarga o'qiydi. U «Bilimlar bellashuvi – 2016»-ning tuman bosqichida 1-o'rinni egalladi. Eng qizig'i, tengdoshingizning kundalik daftarida bir kunda 5-6 ta «besh» bahoni ko'rishingiz mumkin. Bu yutuqlarida Sevarbek, albatta, ota-onasi va ustozlari – Sayyora Jumaniyozova, Nazira Muxtorovaning xizmati beqiyos ekanligini ta'kidlaydi.**





**Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostidagi yoshlar festivali Buxoro viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham katta tantana bilan nishonlandi.**

## BIZ – BUYUK YURT FARZANDLARIMIZ



Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lib o'tgan yoshlar festivali qoraqalpog' yoshlariga unutilmas onlarni hadya etdi. «Deputat va yoshlar», «Biz sog'lom turmush tarafdorimiz», «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin» kabi mavzulardagi tadbirlar yoshlarga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Ellikqal' tumanidagi 18-bolalar musiqa va san'at maktabida o'tkazilgan «Yoshlar jonli ijro tarafdori» loyihasi doirasida o'quvchilar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Jenisbek Piyazov bilan uchrashdilar. Opera xonandasi



shahridagi 10-maktabda, Buxoro tumanidagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabida, shuningdek, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Peshku, Romitan kabi tumanlardagi ta'lim muassasalarida ham o'tkazildi. Unda «Kamolot» kutubxonasi, «Ommaviy madaniyat» va yoshlar, «Odam savdosi – davr muammosi», «Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar



yosh san'atsevarlarga jonli ijro va uning sir-sinoatlari haqida gapirib berdi.

Bu kabi davra suhbatlari Nukus shahrida, Chimboy, Qo'ng'iro't kabi tumanlarda ham bo'lib o'tdi.

Ayniqsa, «Bu mening Vatanim!» loyihasi, Prezidentimizning «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir» kitobining mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan davra suhbatlari, shuningdek, taniqli san'atkorlar, pedagog va olimlar, mahalla faollari bilan bo'lgan uchrashuvlar yoshlar qalbidagi yorqin taassurot qoldirdi. Ularni el-yurtga munosib, Vatanga sodiq inson bo'lishga undadi.

F. SOYIBJON qizi


# SUV – HAYOT MANBAI

**Biz turmushimizni suvsiz tasavvur eta olmaymiz. Suv bo'lmagan joyda hayot ham bo'lmaydi. Jonzotlar ham, o'simliklar ham suv bilan tirik. Lekin u bitmas-tuganmas manba emas.**

Shu bois, suvni qadrlashimiz kerak. Qadimda bobolarimiz ariq qazib, hovuzlarda suv saqlashgan. Hovuz chetlariga ekilgan tollar suvni singib ketishiga yo'l qo'ymagan. Tolning ildizlari suvni ifloslantirmagan. Suvni bulg'agan odam esa jazolangan ekan.



Hammaga ravshanki, tabiatda biz uchun suvdan ham qimmatli, muqaddas ne'mat yo'q. Hayotimizning farovonligi, sog'lom turmush tarzimiz, a'trof-muhit go'zalligi va tozaligi bilan bog'liq. Arzon energiya olish, yerlarni o'zlashtirish, ayniqsa, dehqonchilikni kengaytirish, shahar va qishloq aholisini ozuqa bilan ta'minlash, sanoat korxonalarining ishini me'yoralashtirish, baliqchilik xo'jaligini yuksaltirish va boshqa ko'plab hayotiy chora-tadbirlarni suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xalqimiz orasida hikmatli maqol bor: «Suvga qarab tuflama, suvga qarab supurma».



Aziz tengdoshlarim, bebaho boyligimiz bo'lgan suvni qadrlash, tabiatni asrash va suvni tejash har birimizning burchimizdir.

**Yulduzxon MAHMARIZAYEVA, Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi**

## YOSH MATEMATIK


**Muslimbek Abdujabborov Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 47-umumta'lim maktabi o'quvchisi, Hozirda 7-sinfda ta'lim olayotgan tengdoshingiz namunali xulqi va fanlarni o'zlashtirishda faolligi bois surati «A'lochilar taxtasi»ga qo'yilgan.**

Muslimbek matematika fanidan turli tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida yana 1-o'rinni egalladi.

– Har bir darsni tashkillashtirish o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Ayniqsa, sinfda o'ta ziyrak va talabchan o'quvchilar bo'lsa, bu pedagog zimmasiga ikki karra mas'uliyat yuklaydi, – deydi matematika fani o'qituvchisi Vohidjon Sariboyev. – Muslimbek ana shunday o'quvchilarimdan. Masala va tenglamani yechishning ikki xil usulini bir vaqtning o'zida o'zlashtirishga harakat qiladi. U kelajakda xalqaro olimpiadalarda qatnashishni orzu qiladi.

Muslimbek elektron kutubxonadan foydalanishni o'rganib olgan. Kelgusida malakali dasturchi bo'lishni niyat qilgan qahramonimiz ustoz Sardorbek akadan informatika saboqlarini chuqur o'zlashtirib kelmoqda.

Yosh iste'dod egasining barcha orzulari amalga oshishi shubhasiz, chunki serg'ayrat odamlarga omad hamisha yor bo'ladi.



NURBEK



# KITOB – ishonchli do'st, ma'naviy hamroh



Suhbatdoshimiz – «O'zbekiston» NMIU direktorining nashriyot ishlariga birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali JO'RAYEV.

**Ashurali aka, suhbatimizni nashriyotda bolalar uchun chop etilayotgan kitoblardan boshlasak.**

Suhbatimiz avvalida, shuni quvonch bilan aytish kerakki, 2015-yildan boshlab, nashriyotda Bolalar adabiyoti bo'limi ochildi. Endilikda turli mavzudagi bolalarbop kitoblarni ko'plab nusxada chop etish imkoniyati yaratildi.

Agar o'tgan yili 600 ga yaqin nomdagi kitoblar chop etilgan bo'lsa, ularning eng katta qismi bolalarga mo'ljallangan.

Son g i yillarda ayrim nashriyotlarda bolalar uchun bir xil nomdagi va mavzu jihatdan ham bir xil asarlarni chop etish «an'ana»ga aylandi. Masalan, «O'zbek xalq ertaklari» turkumini ba'zi nashriyotlar qayta-qayta chop etayotganiga nima deysiz? Bir tomondan yaxshidir. Ikkinchi tomondan esa, bir xil ertaklarni chop etaverish kitobxonning hafsalasini pir qilishi mumkin.

**Bola tarbiyasida kitobning o'rnini nimalardan iborat, deb o'ylaysiz? Kompyuter o'yinlari va internetga ruju qo'yayotgan bolalarga qanday tavsiyalar berasiz?**

Bu haqda juda ko'p yozilgan, aytilgan. Ayniqsa, bola tarbiyasida kitobning o'rnini bebaholigi qayta-qayta e'tirof etilgan. Hozirgi davrda hamma gap bolani kitobga qaytarish, kitobni sevisha o'rgatish kabi dolzarb masalani hal etishga qaratilgan. Ochiq'ini aytish kerakki, bolalarimizning kitobdan biron uzoqlashgani rost. Buning sabablarini ayrimlar kompyuter bilan izohlasa, boshqalar internet va internet-kitoblar bilan bog'laydi. Buning sabablari ko'p...

Lekin «Bolalarimiz kitob o'qimay qo'ydi, kitobdan uzoqlashib boryapti», deb qayta-qayta takrorlashdan foyda yo'q. Biz qanday bo'lmasin, farzandlarimizni

kitobni sevisha o'rgatishimiz kerak. Agar ular kitobdan uzoqlashayotgan bo'lsa, biz kattalar aybdormiz, deb o'ylayman.

Mayli, bola kompyuter ilmini chuqur o'rgansin, internet

Nashriyotimizda kitoblari chop etilgan taniqli bolalar ijodkorlari bilan ijodiy uchrashuvlar, yangi kitoblar taqdimoti muntazam tashkil etiladi.

**Kitobxonlikda oilaning o'rnini haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.**

Farzandlarimizni kitobni sevisha, qadrlashga o'rgatishda oilaning o'rnini juda yuksak. Ota kitob o'qisa, ona kitobni sevsa – bolaning kitobga mehr

**O'quvchilarni kitobxonlikka yanada jalb etish uchun:**

**maktablarda «Sinfidan tashqari o'qish» an'analarini rivojlantirish lozim.**

**Oilaviy kitobxonlikni davom ettirish, oila davrasida bobobuvilar, ota-onalar o'qigan kitoblari haqida farzandlari, nabiralari gapirib bersalar, ayni muddao bo'lardi.**



«Men, ota-onam, bobom va buvim – kitobxon oila – 2015» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi g'oliblari Furuzha Egamberdiyeva va Vaziraxon Zaynobiddinova

Z. MAMATQULOVA o'lgan suratlari

aziz farzandlarimizni kitobning sirli, sehrlilari olamiga qaytarayotir. Kitobning ko'zga ko'rinmas, bevosita o'ziga tortadigan qudratli kuchi bor. Agar o'quvchi bir marta kitob bilan oshno bo'lsa, unga umrbod bog'lanib qoladi. Albatta, bu asarning mazmuniga, mavzusiga va yuksak iste'dod bilan yozilganiga ham bog'liq.

**Bu borada nashriyotda qanday ibratli ishlar amalga oshirilmogda?**

Yuqorida aytilgan kitob bayramlarida faol ishtirok etyapmiz.

qo'yishi tabiiy hol.

Biz, ota-onalar, ustozlar o'quvchilarga yaxshi kitoblarni tavsiya qilishdan, vaqt ajratib, ularga o'qib berishdan hech qachon erinmasligimiz zarur.

Shu o'rinda ibratli bir misol keltirmoqchiman: Bahrom Abdiyev degan huquqshunos tanishim bor. U oila a'zolari bilan kitobni juda yaxshi ko'radi. Yangi ochilgan «Kitob olami» do'koniga tez-tez farzandlari bilan kirib turadi. Oilada o'qilgan kitoblar bo'yicha tez-tez fikr almashuvlar yaxshi an'anaga aylangan. Bu jarayonga qizg'in tayyorgarlik ko'riladi. Bahromjonning Jahonmirzo ismli o'g'li 5-sinfda, qizi Aziza 7-sinfda, Madinaxon 9-sinfda, o'g'li Javohir Yunusbod iqtisodiyot kollejida o'qiydi. Ular o'qigan kitoblari bo'yicha oila davrasida savol-javob qilishadi. Kim g'olib chiqsa, maxsus oilaviy mukofot bilan taqdirlanadi. Agar farzandlardan biri savollarga to'liq javob bera olmasa, kitobni yana qayta o'qiydi.

**Bu yil chop etilishi mo'ljallanayotgan o'nta badiiy kitobni sanab o'tsangiz...**

Nega endi o'nta?.. Bu yil nashriyotimiz mingdan ortiq nomda kitob chop etishni rejalashtirgan. Agar ushbu rejaning yarmini

aytsam, gazeta sahifalari yetmay qoladi. Yaxshisi, nashriyotimiz tomonidan chop etilayotgan yangi kitoblarni kuzatib borgan ma'qul. O'shanda birov o'nta, birov yigirmata, boshqa birov undan-da ko'proq kitob tanlab olar...


Shunday bo'lsa-da, savolingizda so'ralgan kitobni aytib o'tmoqchiman: Oybekning «Navoiy» romani, Lyusen Kerening «Amir Temur saltanati» (ilmiy ommabop asar), Usmon Hosilning «Odatnoma» kitobi, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Asari al-boqiya») asari, Ubaydullo Uvatovning «O'zbekiston – buyuk allmular yurti», Halima Ahmadning «Yashil», Po'lat Mo'minning «Topgan topaloq», jahon adabiyotining eng sara hikoyalari jamlangan «Atirgunning tikoni» kitobi, Qirg'iz xalq episi «Manas», Zuhriddin Isomiddinov tarjimasi va taniqli tarjimon Ibrohim G'afurov tarjima qilgan F. Dostoyevskiyning «Iblislar» romanini aytib o'tishni lozim topdim. Bular yuqorida aytganimdek, dengizdan tomchilar, xolos.

Rejamizdagi asosiy kitoblar bolalarga atalgan. Masalan: Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Safar Barnoyev, G'ulom Shomurod, Vali Ahmadjon, Abdurahmon Akbar, Kavsar Turdiyeva, Dilshod Rajab, Muhabbat Hamidova, Dilfuza Shomalikova, O'roq Saidov, Bahrom Akbarov, Dilfuza Kamoljonova singari turli avlodga mansub ijodkorlarning asarlari chop etishga tayyorlanayotir.

**«Tong yulduzi» o'quvchilariga tilaklaringiz...**

Ular o'z gazetalarni sevisha bilan birga, kitobga ham jiddiy mehr qo'ysinlar. Kitob ularning ishonchli do'sti, haqiqiy ma'naviy hamrohiga aylansin. Inson uchun kitobdan yaxshi do'st bo'lmagligi allaqachon isbotlangan haqiqat. Bu haqiqatni unutishga esa, aslo haqqimiz yo'q!

**Shavkat KAZAKBAYEV suhbatlashdi**





# SHOGIRDIM G'OLIB BO'LDI

Bugungi

kunda 3288 nafar o'quvchi ta'lim

olayotgan poytaxtimizdagi 300-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilorom Haydarova tahririyatga qo'ng'iroq qilib, o'quvchim shahar olimpiadasida g'olib bo'ldi va imtiyozli sertifikatni qo'lga kiritdi, deya suyunchilaganida, biz ham ustozni samimiy qutladik. Yo'limiz tushganda esa bu maskanda bo'lib, ularning quvonchiga sherik bo'ldik.

– Ona tili va adabiyot faniga juda qiziqaman, – deydi g'olib bo'lib ustozini quvontirgan 9-«A» sinf o'quvchisi Ozoda Bozorboyeva. – Badiiy kitoblarni mutolaa qilishni yaxshi ko'raman. Pirmuqul Qodirovning tarixiy romanlarini o'qib, olam-olam taassurotlarga ega bo'ldim. Oybekning «Navoiy», Asqad Muxtorning «Chinor», Said Ahmadning «Ufq» romanini yaqin kunlarda o'qib chiqishni rejalashtirib olganman.

– Ozoda o'tgan yili «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» nomli ko'rik-tanlovining respublika bosqichida «Eng chiroyli insho» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan, – deydi Dilorom opa faxr bilan. – 5-sinfdan buyon maktabimizdagi «Zulfiyaxonim qizlari» to'garagi a'zosi. Eng sevimli joyi – maktab kutubxonasi. Orzusi esa adabiyotshunos bo'lish.

O'quvchilarni ohanraboday o'ziga



tortayotgan kutubxonada biz ham bo'ldik. Uning rahbari Dilbar Muhiddinova turli adabiyotlarga boy kutubxona bilan tanishtirar ekan, kitobsevar o'quvchilarning ko'pchiligini nomma-nom sanab o'tdi. «Kitobxon oila», «Kitobxon maktab» kabi tanlovlarda bu maskan doimo sovrindorlar safida turishining sababini anglagandek bo'ldim. Dilbar opaning o'quvchilarga badiiy adabiyotlarni zavq bilan taqdim etishini kuzatish nihoyatda maroqli edi.

Yana bir quvonarli jihati – bu maskanda o'quvchilar kabi ustozlarning ham yutuqlari salmoqligina ekan. Bugungi kunda musiqa fani bo'yicha tumandagi shu soha o'qituvchilariga mahorat maktabini o'tab kelayotgan Ziyoda Ishmurodova faoliyatini alohida ta'kidlagimiz keldi. O'z vaqtida, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» respublika ko'rik-tanlovining g'olibi bo'lgan Ziyoda opa shogirdlari, musiqa fani o'qituvchilari Feruza Ahmadiyeva, Ra'no Xudoyorova «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» tanlovida g'olib bo'lishganini mehr bilan e'tirof etdi.

O'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Muqaddas Solihova bilan muloqot chog'i maktabda fizika, matematika, kimyo va biologiya fanlari chuqurlashtirilgan tarzda olib borilishini bilib oldim. Shogirdlariga zavq bilan saboq berayotgan fidoyi ustozlarni, butun vujudi quloqqa aylanib ularni tinglayotgan o'quvchilarni kuzatar ekanman, bu maktabdan hali ko'p xushxabarlar qanot yozishiga ishonchim komil edi.

Yusuf ABDULLAYEV.  
N. SULTONOV olgan surat

Bo'stonliq tumani, Sijjak qishlog'idagi 43-umumta'lim maktabi so'lim tog' bag'rida joylashgan. Maktab ostonasiga qadam qo'yishingiz bilanoq, yam-yashil manzarali daraxtlar, turfa gullar e'tiboringizni tortib, kayfiyatingizni ko'tarib yuboradi.

## ISTIQLOL FARZANDLARI

Bu yerda ilk nigohimiz qo'llarida daftar-kitoblar ko'tarib olgan, xursandligi yuz-ko'zidan sezilib turgan – Doniyor, Otabek va Dilshodaxonga tushdi. Ular baravariga salom berib, bizga peshvoz chiqishdi. O'quvchilardan xursandchiliklari sababini so'radik. O'quvchilar o'tgan choraklarni muvaffaqiyatli yakunlashibdi. Bitiruvchi sinf o'quvchisi Dilshodaxon Qudratillayeva sportga ham qiziqar ekan. «Kamolot» YOIH tomonidan o'tkazilgan shaxmat bo'yicha sport musobaqasida viloyat bosqichi g'olibi bo'libdi, buning ustiga, ijodkor ham ekan, she'rlaridan namunalari o'qib berdi.

Bu yil ilm dargohini bitiradigan 56 nafar o'quvchidan 2 nafari – Ruxshona Jo'rayeva va Dilshoda Qudratillayevalar imtiyozga ega o'quvchilardan ekan. Eng qizig'i, ko'pchilik sevib tomosha qiladigan «Suyunchi» filmi qahramoni Tursunoy Zunnunova ham shu dargohda ilm olgan, ayni chog'da qadrdon maktabida – Otabek To'laboyevning sinf rahbari ekan. Doniyor va Otabekka «Siz uchun Vatani nima?» deb bergan savolimizga «Vatan –

bu bizning yashayotgan uyimiz, qishlog'imiz, buvamiz, buvimiz, ota-onamiz, saboq oladigan o'quv maskanimiz, boshimiz ustidagi musaffo osmon, buvajonimiz bilan birga mehnat qiladigan ko'm-ko'k dalalarimiz, uzumzorimiz, olmozorimiz, mehr berib parvarish qiladigan uy hayvonlarimiz, tinim bilmas asalarilarimiz», deya javob berishdi.

O'quvchilarning kitob o'qishga, til o'rganishga, futbol, shaxmat-shahka o'ynashga vaqt topa olishlaridan ko'nglimiz to'ldi.

Eng asosiysi, ulardagi yashash zavqi, yuksak marralar sari dadil intilishni ko'rib, havasimiz keldi. Bu esa bugunning yoshlariga xos bo'lgan fazilatlarining asosiysidir.

Gulchehra KARIMOVA



Doniyor

## BILIMLAR SINOVU

Barcha umumta'lim maktablari qatori, bizning ilm dargohimizda ham «Bilimlar bellashuvi» bo'lib o'tdi.

Unda Visola Meliqo'ziyeva, Nozima Hayitmurodova, Umida Islomova turli fanlardan muvaffaqiyatli ishtirok etib, 2-o'rinni egallashdi va diplom bilan taqdirlanishdi. Endi ular bellashuvning viloyat bosqichida ishtirok etishadi. Shuningdek, maktabimizning raqs to'garagi a'zolaridan Zarina Hayitmurodova va Feruza Ahmedova 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Maktabdoshlarimizga navbatdagi bosqichlarda omad tilaymiz.

Mohinur SHOHIMARDONOVA,  
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi  
38-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi



## SO'ZINGIZGA E'TIBOR BERING

So'z katta qudratga ega. Bir so'z bilan olamni munavvar etish-u yana bir so'z bilan kishi ko'nglini vayron qilish mumkin.

Ayrim tengdoshlarimizning ba'zida o'ylamay aytib yuboradigan so'zlarini eshitib, hayron qolaman. Sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobida shunday yozgan edi: «Odamlar so'z uvolidan ham non uvolidan qo'rqqanchalik qo'rsalar, olam guliston bo'lar edi».

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, xalqimizning «O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir», degan purma'no maqoliga amal qilib, bir-birimizga mehr ulashib yashaylik. Zero, bu dunyoda yaxshi nom abadiydir.

Dilnoza ADILBOYEVA,  
Navoiy viloyatidagi Navbahor iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish kollejining 1-bosqich o'quvchisi



**Yaqinda poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabida o'tkazilgan «Orasta qizlar – 2016» ko'rik-tanlovida respublikamizdagi ta'lim muassasalarining 8-9-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Unda joriy yil hududiy bosqichlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan eng orasta qizlar 5 ta shart bo'yicha bellashdi.**

# «ORASTA QIZLAR – 2016» ko'rik-tanlovinging respublika bosqichi bo'lib o'tdi

Jumladan, o'zini qanday tutishi, qanday odob-axloq qoidalariga rioya etishi kerak?» kabi savol-javoblarda, uy-ro'zg'or yumushlari-yu pazandachilik borasida, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.

Tanlovning hakamlar hay'ati a'zolariga orasta qizlar orasidan eng orastalarini tanlab olish oson bo'lmadi. Chunki ishtirokchilarning aksariyati tanlovga puxta tayyorlangani, ularning har biri bilimdon va zukko ekanligi sezilib turardi. Shunday bo'lsa-da, «Orasta qizlar – 2016» g'oliblari aniqlandi.

– Men sportning tennis va voleybol turi bilan shug'ullanaman, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanidagi 55-IDUMning 9-sinf o'quvchisi Go'zal Bisenboeva. – Tumanimizda o'tkazilgan «Qizlar malikasi – 2016» ko'rik-tanlovida tennis bo'yicha 1-o'rinni egalladim. «Orasta qizlar – 2016» tanlovida esa 3-o'ringa loyiq topilganimdan xursandman.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi 16-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Dilmira Abduvahobova 1-o'rin, Namangan



F. ABDUSAMAD qizi



## LESSON 84

### PHRASAL VERBS (Iboralar)

**Look out/watch out = be careful**

For example: Look out! There's a car coming.

**Come on = be quick/hurry**

For example: Come on! Everybody is waiting for you.

**Hold on = wait**  
For example: Can you hold on a moment, please?



Painter: YOQUBBEK

**Carry on = continue**

For example: Don't stop working. Carry on.

**Go on/walk on/drive on = continue going etc.**

For example: Don't stop here. Drive on.

**Slow down = go more slowly:**

For example: You are driving too fast. Slow down.

**Break down = stop working (for cars/machines etc.)**

For example: I'm sorry I'm late. The car broke down.

### COMPLETE THE SENTENCES (Gaplarni to'ldiring)

Dear pupils choose the appropriate verbs to these sentences:

**Like, close, watch, do, teach, have, go, like, play, wash, speak.**

- The shops open at 9 o'clock and ... at 5.30.
- We ... a lot of different things in our free time.
- Anvar ... four languages.
- Nilufar is a teacher. She ... mathematics to young children.
- Barno ... her hair twice a week.
- He ... football but he doesn't ... very often.
- I ... lunch at home.
- Sardor ... to work by bus.
- I ... TV every day.
- Bobur ... hot weather.

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### WHAT IS PROVERB?


Proverb is one of the Uzbek oral, ancient, mass genre.

Proverb – is an example of logical observation, it is a wise speech which gathering tact and moral rules. It always warns people, some advise, reprooves, criticizes, aggrandizes labour and others. Such feelings as: vital experiences, attitudes to public, history, mental conditions, senses, positive qualities of generation are incarnated in proverbs.

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum under Uzbek State World languages university

### CROSSWORD



My clever friends if you translate these words from Uzbek into English you can find the key word.


- Boshliq
- Maktab
- Ozod
- Tun
- Bahslashmoq
- Kirmoq
- Tuxum
- Sinf
- To'xtamoq
- Qora rang
- Chizmoq

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

### DO YOURSELF

Make questions with Past Continuous:

- What/ you/ do/ at 11 o'clock?
- What/ she/ wear/ yesterday?
- Where/ you/ go/ in the evening?
- It/ rain/ when/ you/ went out?
- Your mother/ cooking/ when/ I came?



Aziza RASHIDOVA,

the pupil of school number 77 in Dehqonobod district, Qashqadaryo region



«Sog'lom bola – boy bola»  
tanloviga

## YURTIM BOY BOLALARI!

(Shaxmat bo'yicha jahon chempionlari aka-uka Javohir va Filombek SHANDOROVlarga)

Yurtim sportchilari,  
Asl shaxmatchilari.  
Aka-uka g'oliblar –  
O'zbekistonim faxri.

Raqiblarni mot qilib,  
Yuksaklarni ko'zlaydi.  
G'alabaning zavqidan,  
Medallari so'zlaydi.

Ukalarim chamanning,  
Kichkina lolalari.  
Dong'i doston Vatanning,  
Sog'lom, boy bolalari!

**Gulsanam JUMAYEVA,**  
Buxoro viloyati, Vobkent  
tumanidagi 21-umumta'lim  
maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

## MEHNATKASH CHUMOLILAR

Ishlab sira tolmaydi,  
O'tirib dam olmaydi.  
Charchash nima bilmaydi,  
Mehnatkash chumolilar.

O'zaro bo'lib o'rtoq,  
Ular doimo inoq.  
Uyidan ketmas yiroq,  
Mehnatkash chumolilar.



**Nozima DAVLATOVA,**  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir  
tumanidagi 1-umumta'lim maktabining  
5-sinf o'quvchisi

Non ushoq tushsa yerga,  
Botib bo'lsa ham terga.  
Olib ketishar uyga,  
Mehnatkash chumolilar.

Dam olish yo'q ularga,  
Qanday chidar bularga.  
Yuz bor rahmat ularga,  
Mehnatkash chumolilar.

## VATAN

Vatan! Sen mening g'ururim, faxrim,  
Tomirdagi qonim, iftixorimsan.  
Senga baxshidadir bu aziz jonim,  
Ka'badek muqaddas sajdagohimsan.

Hayotim sururi sen bilan go'zal,  
Poyingga bir umr qilaman ta'zim.  
Toki hayot ekansan, hayotman men ham  
Onamdek mehribon, ulug'san – xalqim.

Bobolarim yotgan qutlug' zaminim,  
Muhammad Boburning yurtisan – Vatan.  
Zulfiya she'rlarin har bir misrasi,  
Bir so'z bilan to'lgan – bu esa Vatan!

Betakrorsan, yagonasan, ona Vatanim,  
Qalbimning navosin senga atadim.  
Kindik qonim to'kilgan aziz chamanim,  
Vatan! Sensan mening hayot javharim.

**Parzoda SHAHOBIDDINOVA,**  
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi  
97-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf  
o'quvchisi

## BAHOR GULLARI

**E'zoza TURSUNOVA,**  
poytaxtimizning  
184-umumta'lim  
maktabining 3-«B» sinf  
o'quvchisi



## TARADDUD

Deydi, «Yetti iqlimga  
Yetsin yurtning dovrug'i».  
Har yon tinmay taralar,  
Qaldirg'ochlar qo'shig'i.

Har daraxtning shoxida,  
Tovlanadi ming chechak.  
Arlarning orzusi,  
Shu chechakdan bol ichmak.

Bog'da qushlar jam bo'lib,  
Sho'x-sho'x qo'shiq aytadi.  
Varraklar ham quyoshdan,  
Dastxat olib qaytadi.

Maysalarning ifori,  
Bag'ishlaydi zavq dilga.  
Biz ham gul bo'lib peshvoz,  
Chiqajakmiz bahorga.

**Lobar RAIMQULOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi  
25-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

2016-yil –  
«SOG'LOM ONA VA BOLA YILI»

O'roq SAID

## ONAMGA

Bugun yana ta'zimdaman,  
Ta'zimdaman, onajon.  
Senga atab olib keldim,  
Turli gullardan marjon.

Gul qistirib yonog'ingga –  
Farzandingga boqqin sen.  
Marjon bilan bolang mehri,  
Ko'kragingga taqqin sen.

Ham keltirdim ajib do'ppi,  
Boshginingga kiyib ol.  
Men keltirgan atirlardan,  
Ust-boshingga sepib ol.

Hadya etgan shu do'ppimda,  
Oy, quyoshning aksi bor.  
Butun mehri o'g'a mengzab,  
Boshginingda ko'rgim bor.

Atirda-chi, mening, ona,  
Sevinch yoshim qo'shilgan.  
Uni sepsang, doim menga,  
Albat, mehri jo'sh urgay.

Gar istasang, tishlarim ol,  
Yuragim ham seniki.  
Oq sutingni hurmati-chun,  
Beray bo'lsa har neki...

Kerak bo'lsa jismimni ham –  
Vujudimni bag'ishlay.  
Umrin bo'yi madhing o'qib,  
Onajonim olqishlay.

Sen oyimsan, quyoshimsan,  
Yulduzimsan, onajon!  
Zaminim-u osmonimsan,  
Sensiz kerakmas jahon.

Baxtinga sen omon bo'lg'in,  
Tog'lar yoshin yashab yur.  
Quyosh kabi yuragingdan,  
Menga shu'lang sochib tur...

Bugun yana ta'zimdaman,  
Ta'zimdaman, onajon.  
Umrin bo'yi boshda tutay,  
Sen menga yorug' jahon!

Yoz kunlarining birida uch o'rtoq o'rmonga sayrga chiqishdi. Shu payt havo aynib, osmonni qora bulut qopladi. Ular yomg'ir yog'ishini sezib, o'rmon yaqinidagi eski kulba ichiga kirib olishdi. Zum o'tmay, yomg'ir sharros quya boshladi. Bolalar panada turib, chelaklab quyayotgan jalani uzoq tomosha qilishdi.

Shu payt uch o'rtoq uycha tomon yugurib kelayotgan, chamasi 10 yoshlardagi bolakayga ko'zlari tushdi. Kulbaga yetib kelganida, u boshdan-oyoq jiqqa ho'l bo'lgan, tanasi esa sovuqdan dir-dir titrardi.

Shunda bolalar ichidan eng kattasi unga qarab dedi:

– Yomg'irda qolib ketganing chakki

bo'libdi-da. Ustingni shalabbo bo'lganini aytmaysanmi?! Eh, senga juda rahmim kelyapti. Afsus...

Ikkinchi bola ham unga rahmdillik bilan shunga o'xshash chiroyli so'zlar aytdi:


– Bunday havoda dalaning qoq o'rtasida qolib ketish juda yomon bo'lsa kerak. Xafa bo'lma, ukajon, senga hamdardman.

Hamrohlarning uchinchi esa bir so'z demadi. U indamay ko'ylagini yechdi-da, sovuqdan qaltirayotgan bolakayga uzatdi...

Qissadan hissa shuki, insonni chiroyli so'zlari emas, balki go'zal amallari ulug'laydi.

Rus tilidan Zohida  
SHAROBIDDIN qizi tarjimai

## Vasiliy SUXOMLINSKIY



## YAXSHILIK (Hikoya)



## ZILOLANING ORZUSI

**Shoda-shoda medallari ko'ksini bezab turgan bu iqtidorli tengdoshingiz poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 317-umumta'lim maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi Zilola Jo'rayeva bo'ladi.**

Jajji qahramonimiz bolaligidan sportga o'zgacha mehr qo'ydi. Buni payqagan Kamola opa farzandini 4 yoshidayoq badiiy gimnastika to'garagiga yetaklab bordi. Nima bo'ldi-yu, biroz vaqt o'tib, Zilola karatening shin kyokushunkay turiga jiddiy qiziqib qoldi. Undan bu haqda so'raganimizda, u shunday dedi:

– Bir kuni to'garakdan qaytayotib, sport zalida

bolalar qizg'in mashg'ulot o'tayotganiga ko'zim tushdi. Ularning chiroyli harakatlarini kuzata turib, menda karate sport turiga mehr uyg'ondi. Onamga qiziqishim haqida aytganimda, «Qizim, bu sport turini qo'y. Chunki jarohat olishing, tanang lat yeyishi mumkin. Undan ko'ra, o'z mashg'ulotlaringni davom ettira qol», deya rozi bo'lmadilar. Maqsadim jiddiy ekanini bilgach, boshqa qarshilik qilmadilar.

Zilola, mana 5 yildirki, mahoratli murabbiy Farhod Temirov qo'l ostida karate sir-asrorlarini puxta o'zlashtirib kelmoqda. Shu kunga qadar, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Navoiy viloyatlarida bo'lib o'tgan respublika chempionatlarida munosib ishtirok etib, barcha yaqinlari ishonchini oqlab kelmoqda. Jumladan, 2015-yil Navoiy va Samarqand viloyatlarida yoshlar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada faxrli o'rinni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, Buxoroda bo'lib

o'tgan turnir Zilolaning yodida bir umr saqlanib qoladigan bo'ldi. U musobaqada barcha raqiblarini ortda qoldirib, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

– Turnirga ustozim bilan jiddiy tayyorgarlik ko'rdik. Bellashuvlar oldidan ular menga «Zilola, aslo bo's kelma. Bilaman, sen juda iqtidorli, intiluvchan qizsan. Sen, albatta, chempion bo'lasan», deya dalda berdilar. G'olib bo'lganimda esa barcha yaqinlarim qatori sevindilar, – deydi Zilola.

Tengdoshingiz bo'sh vaqtlarida kitob o'qish, she'r yodlashni yoqtiradi. Ayniqsa, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajab, Kavsar Turdiyeva kabi shoirlarning kitoblarini maroq bilan mutolaa qiladi. Zilola kelajakda yetuk sportchi bo'lib, Osiyo va jahon chempionatlarida ona Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishni niyat qilgan. Biz



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

umidli sportchi qizimizga ezgu orzulari ijobat bo'lishiga tilakdoshmiz.

Sa'dullo TURSINOV

## PEDAGOGIKA KOLLEJI-JAMOASI G'OLIB

Poytaxtimizda joylashgan «Paxtakor» markaziy stadionida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida «Kamolot» kubogi futbol musobaqasining Toshkent shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Musobaqada poytaxtlik yosh futbolchilar g'oliblik uchun bellashdilar. Final bosqichida Yunus Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika kolleji va Olmazor politexnika kasb-hunar kolleji jamoalari o'zaro kuch sinashdilar. Yakuniy hisobga ko'ra, pedagogika kolleji sportchilari 6:5 natija bilan g'alaba qozonib, musobaqaning mamlakat bosqichida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Muhammadsodiq ALIMOV



Lobar MAHMUDMURODOVA, Sergeli tibbiyot kolleji o'quvchisi

## VOHALIK YOSH CHEMPION

**Pahlavonkel-bati medallarga boy bu yosh sportchini ko'rib, «Ushbu iqtidor egasi kim ekan?» deyayotgandirsiz-a?**

U bugun yurtimizda yosh avlodning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'z yutuqlari bilan ustoz va yaqinlarini xushnud etib kelayotgan tengdoshlarimizdan biri Bahridin Rasulov bo'ladi.

2002-yilda tavallud topgan bu yosh iste'dod egasi, mana 4 yildirki, sportning karate turi bilan shug'ullanib keladi. Bahridin qisqa vaqt ichida respublika miqyosida bo'lib o'tgan yirik musobaqalarda bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Sport mening hayotim. U tufayli tanim sog', maktabdagi o'qishlarim esa a'lo. Kelajakdagi eng katta orzuim – jahon chempioni bo'lib, yurtim nomini butun dunyoga tanitish, – deydi yosh sportchi.

Biz Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Bahridinning orzulari ushlishiga tilakdoshmiz.

## OSIYO CHEMPIONATI YAKUNLANDI

Prezidentimizning 2013-yil 25-fevraldagi «O'zbekiston sportchilarini 2016-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq bugungi kunda mamlakatimizda dzyudo federatsiyasi tomonidan sportchilarimizning zamonaviy me'yorlar asosida o'quv-mashg'ulotlarni o'tkazishi, xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

«O'zbekiston» sport majmuasida dzyudo bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.

Har qanday kishi qalbini hayajonga soluvchi Osiyo chempionatida o'ttizdan ziyod davlatdan tashrif buyurgan 230 dan ortiq sara dzyudochilar sovrinni o'rinarlar va joriy yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'ladigan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma beruvchi muhim reyting ochkolari uchun kurashdi.

Ushbu chempionatda Diyorbek O'rozboyev, Abdujalil Yusupov, Shahzod Sobirov, Yahyo Imomov, Mirali Sharipov, Soyib Qurbonov, Sherali Jo'rayev, Ramziddin Saidov, Abdulla Tangriyev hamda Muqaddas Kubeyeva, Diyora Keldiyorova, Muhayyo Ibrohimova, Omongul Allanazarova, Gulnor Sulaymonova, Nodira Gulova, Gulnoza Matniyozova, Kumush va Nodira Yo'ldoshevalar singari iqtidor egalari mamlakatimiz sharafini munosib himoya qildi.

Quvonarlisi, erkaklar ishtirokida jamoaviy bahslarda dzyudochilarimiz ilk bor bosh sovrinni qo'lga kiritdi.

Shukrulla G'ULOMOV

Termiz shahrida «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi ijrosi doirasida 2007–2011-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida badiiy gimnastika bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi.

## G'OLIBLAR TAQDIRLANDI

Vatanimiz mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan mazkur musobaqada umumjamao hisobida Termiz shahri badiiy gimnastikachi qizlari 1-, jarqo'rg'onlik sportchilar 2- va Denov tumani gimnastikachilari 3-o'rinni egalladi. «Eng yaxshi ko'rsatkich», «Eng yaxshi chiqish», «Eng yaxshi xoreografiya», «Betakror kompozitsiya», «Eng faol jamoa» kabi nominatsiyalar bo'yicha ham g'oliblar aniqlanib, munosib rag'batlantirildi. Quvonarli jihati, viloyatda 2003-yili 94 nafar qizlar sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullangan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 4 mingdan oshdi.

ZUBAYDA







# KATTA TANAFFUS

Bolajonlar, barchangiz katta tanaffusga qo'ng'iroq chalinishini orziqib kutasizlar-a? Axir darslar oralig'idagi qisqa tanaffus suhbatlashishingizga yetmaydi-da! Vaqtdan foydalanib, kimdir kutubxonaga, yana birov oshxonaga shoshiladi. Biz ham «Katta tanaffus»da gurunglashmoqchi bo'lgan tengdoshlaringizni davramizga chorlaymiz.

## TOPISHMOQNI TOPING-CHI!

Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchisi Ro'zaxon ULUG'BEKOVA matematik boshqotirmalarni yechishni va topishmoqlar tuzishni juda xush ko'radi. Ro'zaxon sizlarning matematikada qanday natijalarga erishayotganingizni topishmoqlari orqali sinab ko'rmoqchi ekan.

**Mening sakkiz oshnam bor,  
Hammasi ham mendan kam.  
Gar o'ngacha sanasang,  
Meni aytmay qo'ymaysan.**

Nimaning uchi va oxirini topish mumkin emas?

Qaysi raqam parvoz qilishni buyuradi?

## BALIQ

Nargizaning oyisi,  
Savolga tutdi uni:  
-Yangilab qo'ydingmi,  
Baliqlarning suvini?

-Sui akvariumda,  
Turibdi-ku to'la - liq.  
Kecha quygan suvimni,  
Ichib bo'lmabdi baliq!

Mavluda O'RMONOVA,  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi  
16-umumta'lim maktabining  
7-sinf o'quvchisi

## TEZ AYTISH

Qosimjon qizil qalamga qiziqib qaradi.

Mahliyo AVAZOVA, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## Biologiya fanidan test

- Bir pallali o'simliklarga nimalar kiradi?  
A) o'rik;  
B) bug'doy;  
D) pomidor;  
E) olma.
- Hayvonlarning eng yuqori sistematik guruhiga nimalar kiradi?  
A) oila;  
B) sinf;  
D) tip;  
E) turkum.
- Leykotsitlar odam organizmida qanday vazifani bajaradi?  
A) himoya;  
B) transport;  
D) qonning ivishi;  
E) oqsil sintezi.

Xosiyat HASANOVA tayyorladi

## FILVORD

Ushbu filvordning so'zlarini to'g'ri toping.

A	H	O	S	M	T	U	R	Y
B	N	R	U	A	Y	A	N	A
H	A	V	M	B	O	I	P	L
A	O	R	A	C	H	Y	Z	L
L	Z	Q	L	E	C	H	A	K
I	M	A	A	A	M	A	R	A
I	D	L	K	P	L	N	T	L
R	G	O	C	H	R	E	I	H

Shahboz IBROHIMOV,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
4-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

## «Bahor keldi»



«Oqqushlar»

## HABIBA

MURTAZOQULOVA Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 3-«B» sinfidagi baholarga o'qish bilan birga, rasm chizishga juda qiziqadi. Habiba gazetamizning «Tong yulduzi» a'lochilari, «Ko'ngil bo'stoni», «Ingliz tilini o'rganamiz», «Ertamiz egalari» ruknlarida beriladigan maqolalarni zayq bilan o'qishini yozibdi. Quyida Habibaning chizgan rasmlaridan namunalarni hukmingizga havola qilyapmiz:

## CHIG'ANOQLI

### SHIRINLIK

**Kerakli masalliq:** 250 gramm sariyog', 3 dona tuxum, 200 gramm qaymoq, 2-3 stakan un.

**Nachinkasiga:** 3 dona tuxum oqi, 1 stakan shakar, 1 stakan yong'oq, 1 stakan mayiz.

**Tayyorlanishi:**

alohida idishda qaymoq va tuxum sariyog'i atalanib, yarim soatga olib qo'yiladi. Qirg'ichdan chiqarilgan sariyog'un bilan uqalanadi. So'ngra ustiga tuxumli qorishmani solib, yumshoq xamir qoriladi.

Xamir yong'oqdek zuvalachalarga bo'linib, bir soat tindiriladi. Tuxum oqi 1 stakan shakar bilan quyilguncha ko'pirtiriladi. Yong'oq va mayiz maydalanib, ko'pirtirilgan tuxumli qorishmaga solib aralashiriladi. Har bir zuvalacha yoyilib, ichiga nachinka solinib, ikki buklanadi. Oldindan qizdirilgan gaz pechida o'rtacha olovda 25-30 daqiqa davomida pishiriladi. Pishgan shirinligimiz ustiga shakar kukuni sepiladi.



## Pazanda qizgal

Yoqimli ishtaha!

**NARGIZA tayyorladi**

Iye, darsga qo'ng'iroq chalindi, shekilli?! Tanaffusimiz ham tugab qolibdi-ku... Biz bilan miriqib dam olganingizga ishonchimiz komil. Yana «Katta tanaffus»da ko'rishguncha, xayr...  
«Katta tanaffus»ga qo'ng'iroqni OZODA opangiz chaldi.

25-aprel 2016

**Bosh muharrir**  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHIR HAYATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Nodira NAZAROVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL og'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Manzillim va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda  
ISSN 2010-6092  
Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10  
Adadi - 50033  
Buyurtma - S 5762

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.